

О`Т OLDIRISH TIZIMI MAVZUSIDA O`QUV AMALIYOTINI TASHKIL ETISH

Shaxobiddinov Muhiddin Mahammatibroximovich

To'raqo'rg'n tuman 2-sonli kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish talimi ustasi

Annotatsiya: Mazkur bitiruv malakaviy ish “O‘quv amaliyot mashg‘ulotini tashkil etish va o‘tkazish” deb nomlangan bo‘lib, u 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuni dolzarbli yoritilgan, maqsad va vazifalari bayon etilgan, amaliy ahamiyati keltirilgan. Mazkur ishning birinchi bobida “Professional ta‘lim tizimidagi davlat siyosati” yoritib berilgan. Uning ikkinchi bobida “O‘quv amaliyot mashg‘ulotini tashkil etish va o‘tkazish ” bo‘yicha to‘liq batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida amaliy mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazishdagi muammolar bayon etilgan. Mazkur masala bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va yutuqlarni ommalashtirishga doir hamda o‘quv amaliyotlarini sifatini oshirishga qaratilgan aniq takliflar berilgan. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda institutning hududiy fakultet fond materiallari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy va ommaviy adabiyotlar hamda internet saytlaridan foydalanilgan. Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: turdosh professional ta‘lim muassasalarida malaka oshirish jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalar asosida o‘quv amaliyotlarini tashkil etish va o‘tkazish ishlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash, zamonaviy talablarga doir ma‘lumotlarni to‘plash va o‘quv amaliyotlarni sifatini oshirish uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi

Kalit so‘zlari: o‘t oldirish tizimi, o‘t oldirish tizimi sxemasi, asosiy saqlagich, o‘t oldirishni o‘chirgichi, saqlagich, o‘t oldirish g‘altagi, taqsimlagich, taqsimlagich rotori, elektr magnitli datchik, tranzistorli boshqarish bloki, rotor, o‘t oldirishni vacuum rostlagichi, o‘t oldirgichni markazdan qochma rostlagichi, o‘t oldirish svechalari, kontakt – tranzistorli o‘t oldirish tizimining sxemasi, uzgich, tranzistor; o‘t oldirish g‘altagi, emitter, baza, kollektor, stator cho‘lg‘ami, doimiy magnitli rotor, tranzistor, o‘t oldirish g‘altagi, tok kuchi, magnit induksiyasi vektori, plastina materialiga bog‘liq bo‘lgan xoll doimiysi, plastinaning qalinligi, oktan-korrektor plastinkalari, moylash joyi, uzgichning qo‘zg‘aluvchi va qo‘zg‘almas plastinkalari, prujinalar, vakuumli regulyator korpusi, diafragma, tyaga, korpus, qisqich, taqsimlagich qopqog‘i, tok tarqatish plastinkasi, ko‘mir sterjen, markaziy va yon elektrodlar, moyla-gich, rostlagichli ekstsentrik, o‘q, qo‘zg‘aluvchi kontakt dastakchasi, qo‘zg‘almas kontakt dastakchasi, shtift, kulachok, etaklovchi (povodok), valik, etaklovchi (povodkovaya) plastina, gayki oktan-korrektorni rostlash gaykalari

**О‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSI
VAZIRLIGINING NAMANGAN VILOYAT XUDUDIY BOSHQARMASI
KASB-HUNAR TA‘LIMI TIZIMINI INNOVATSION
RIVOJLANTIRISH, PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISH
VA ULARNI QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI
ISHLAB CHIQRISH TA‘LIMI USTALARINI MALAKASINI
OSHIRISH NAMANGAN VILOYAT XUDUDIY FAKULTETI
Professional ta‘lim tizimi kadrlarining malakasini oshirish kursi**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Mavzu: O‘t oldirish tizimi mavzusida o‘quv amaliyotini tashkil etish

Bajardi: ishlab chiqarish ta‘limi ustalari “Avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash” guruhi tinglovchisi: Shaxobiddinov Muxiddin Maxamatibroximovich

BITIRUV MALAKAVIY ISH TOPSHIRIQ VARAQASI

Tinglovchi: Shaxobiddinov Muxiddin Maxamatibroximovich.

Faoliyat yurituvchi ta‘lim muassasasi: To‘raqo‘rg‘on tumani 2 – son kasb-hunar maktabi.

Faoliyat turi: Ishlab chiqarish ta‘limi ustasi.

Diplom bo‘yicha mutaxassisligi: Kasb ta‘limi, “Transport vositalarini ishlatish va ta‘mirlash” bakalavr

Ilmiy darajasi:

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi: O‘t oldirish tizimi

Kirish. Mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari va ta‘lim muassasasi haqida ma‘lumotlar va bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati keltirilgan.

1-bob. Professional ta‘lim tizimida davlat siyosati.

2-bob. Amaliy mashg‘ulotlarning tahlili.

Mavzu olingan sana: «24» Mart 2023 yil

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish sanasi: « 30 » noyabr 2023 yil

Tinglovchi:

Muxiddin Shaxobiddinov

MUNDARIJA

Malaka ish boblari va paragraflari	
Kirish	
1-bob. Professional ta'lim sohasidagi davlat siyosati	
1.1. Ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalar	
1.2. Yangi professional ta'lim muassasalaridagi tarkibiy o'zgarishlar	
2-bob. O'quv amaliyot mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazish	
2.1. "Avtomobil dvigatellarini tashxislash va ta'mirlash" kasbi bo'yicha	
2.2. Ta'lim texnologiyalari	
2.3. O'quv amaliyot mashg'ulotini tashkil etish	
Xulosa va takliflar	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
Ilovalar	

KIRISH

Zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga ega vatanparvar yoshlarni tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir.

Shavkat Mirziyoyev

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so'nggi yillarda umumiy tarzda modernizatsiyalash orqali amlga oshirilib kelinmoqda.

Odatda, modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o'tadi. Falsafiy talqinda ifoda etganda miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga aylanadi. Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo'ladi. Jumladan, kasb-hunar ta'limi sohadagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir.

Natijada kasb-hunar ta'limi sohasida ham davlat siyosati tubdan o'zgardi.

Prezidentimiz tomonidan sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta'lim tizimini barpo etishning maqsad va ustuvor vazifalari, bir so'z bilan aytganda, sohaning **yangi missiyasi** belgilab berildi.

Ushbu missiya mohiyati yangi sifat va formatda inson resurlarini rivojlantirish, yoshlarda ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy kvalifikatsiyalarni

shakllantirish, ularning Vatanga muhabbatini, xalqiga sadoqatini yuksaltirishdan iboratdir.

Shu tariqa tizim oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash;
- yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish;
- o'z mehnat faoliyatiga innovasion va kreativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, madaniy, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasini yaratish.

Mazkur vazifalar esa o'z-o'zidan yangicha o'qitish texnologiyalarini ta'limga jalb qilishni, ulardan professional ta'lim jarayonida samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

2.2- §. Ta'lim texnologiyalari

Pedagogik ilm va amaliyotda "pedagogik texnologiya", "ta'limiy texnologiya" va "ta'lim berish texnologiyasi" kabi atamalar keng qo'llaniladi. Shu bilan birga ularni tushunishda alohida bo'lgan o'qish turlari mavjud. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, ularni nima ajratib turishini tushunish uchun "texnologiya" va uning kelib chiquvchilari: "texnologik jarayon", "texnologik harakat", "texnologik xarita", "texnologik tartib" tushunchalarini aniqlash lozim.

Ta'limni texnologiyalashtirish bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

"Ta'limiy texnologiya" – "ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, ya'ni butun ta'lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli" (YuNESKO).

Ta'lim tizimi boshqa barcha xorijiy mamlakatlar singari falsafa, psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar asosida tuziladi. Pedagogikada bu yo'nalishning asosiy farq qiladigan jihati shundaki, ta'lim oluvchining o'zligi, uning shaxsi, mustaqil tanqidiy fikrlashini ongli rivojlanishiga aniq yo'naltirilgan, ularning xususiyat va imkoniyatlarini hisobga olgan har bir ta'lim oluvchining mustaqil bilish faoliyatiga bog'liq hisoblanadi.

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning *ta'lim modeli* jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

dastlabki ma'lumotlar: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;

shakl (ma'ruza, seminar va boshq.) va ko'rinishi (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o'quv mashg'uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;

tanlangan ta'lim modeli: usullar, shakllar va o'qitish vositalari;
 ta'lim berish sharoiti: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
 monitoring va baholashga asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

Ilova. O'quv jarayonining tashkiliy – didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Quyida mavzu bo'yicha ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi keltiriladi.

2.3. O'quv amaliyot mashg'ulotini tashkil etish TRANSPORT VOSITALARINI VA QISHLOQ XO'JALIK AGREGATLARIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

O'quv amaliyot mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mavzu (nomi) O't oldirish tizimi

O'quv mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi modeli

Vaqt: 6 soat	Ta'lim oluvchilar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Amaliy: o'quv amaliyoti
O'quv mashg'uloti rejasi, tuzilishi	1.O't oldirish tizimi vazifasi 2.O't oldirish tizimi turlari 3.O't oldirish tizimini qismlarga ajratish, tuzilishini o'rganish
O'quv mashg'uloti maqsadi: O'quvchilarga o't oldirish tizimi vazifasi, turlari, tuzilishlari bo'yicha nazariy bilimlari to'g'risida ma'lumot berish va ularda mavzu mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish	

O'qitish natijasi	Ushbu mavzuni o'zlashtirish natijasida o'quvchida o't oldirish tizimi vazifasi, turlari, tuzilishlari haqida bilim, ko'nikma va kompetensiya shakllanadi
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>1.O't oldirish tizimi vazifasi bilan tanishtirish;</p> <p>2. O't oldirish tizimi turlarini tushuntirish;</p> <p>3.O't oldirish tizimi tuzilishini ko'rsatish;</p> <p>4.Qismlarga ajratish bo'yicha yo'riqnoma berish;</p> <p>5.Yoriqli texnologik xarita bo'yicha mashq bajarish qoidalarini yoritibberish;</p> <p>6.Mashqlarni bajarishda yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatish.</p>	<p>Oquv faoliyat natijalari:</p> <p>1.O't oldirish tizimi vazifasini aytib beradi;</p> <p>2.O't oldirish tizimi turlarini gapirib beradi;</p> <p>3.Qismlarga ajratish ishlarini takrorlab ko'rsatadi;</p> <p>4.Yo'riqli texnologik xarita bo'yicha qismlarga ajratish mashqlarni yo'riqnoma asosida bajaradi;</p> <p>5.Qismlarga ajratish va yig'ish mashqlarini mustaqil bajaradilar;</p> <p>6.Qismlarga ajratish va yig'ish mashqlarini bajarishda xatolar ustida ishlaydilar.</p>
O'qitish usullari.	Tushuntirish, ko'rsatish, yo'riqnoma berish, mashq va boshqalar
O'qitish vositalari.	Yo'riqli texnologik xarita, kerakli jihoz va asboblari, ko'rgazmali qurollar, proyektor, stendlar, slaydlar, plakatlar
O'quv faoliyatini tashkil etish shakli.	Ommaviy, jamoaviy, guruhli, juftlikda, yakka tartibda.
O'qitish sharoiti.	Jixozlangan traktor va qishloq xojalik mashinalari o'quv laboratoriyasi
Qayta aloqaning usul va vositalari.	Nazorat, bajarilgan ishlarni tekshirish, og'zaki savol – javob, xisobot, va boshqalar.

О`quv amaliyot mashg`ulotining texnologik xaritasi

О`QUV MATERIALLARI

1-ilova

<i>Ish boskichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Ta`lim oluvchi</i>
<i>1-bosqich. O`quv mashg`ulotga kirish (...daq)</i>	<p><i>Tashkiliy qism:</i></p> <p><i>Ta`lim oluvchilarning davomatini tekshiradi.</i></p> <p><i>Ta`lim oluvchilarning mashg`ulotga tayyorgarligini nazorat qiladi.</i></p> <p><i>Amaliy mashg`ulot nomi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi (1-ilova).</i></p> <p><i>Amaliy mashg`ulotning baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).</i></p> <p><i>Xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishni eslatadi.</i></p>	<p><i>Mashg`ulotga tayyorgarlik ko`radilar.</i></p> <p><i>Amaliyotga xavfeizlik texnikasi, sanitariya va gigiyena talablariga rioya qilgan holda maxsus kiyimda keladi. Xavfeizlik texnikasi jurnaliga imzo qo`yadilar. Tinglaydilar.</i></p>
<i>2-bosqich. Asosiy (...daq)</i>	<p><i>Kirish yo`riqnomasi (50 daq). O`quvchilar bilimini faollashtirish:</i></p> <p><i>Tezkor-so`rov; savol-javob, aqliy xujum orqali bilimlarni faollashtiradi (3-ilova).</i></p> <p><i>Yangi o`quv material bayoni:</i></p> <p><i>O`quv amaliyoti mavzusi bo`yicha umumiy ma`lumot beradi, ish jarayonini tushuntiradi (4-ilova);</i></p> <p><i>Joriy yo`riqnoma (135 daq).</i></p> <p><i>Yangi o`quv material bo`yicha amaliy mashq bajarish.</i></p> <p><i>Ta`lim oluvchilarni ish joylariga taqsimlab amaliy ish yuzasidan yo`riqnomali texnologik xarita (5-ilova)</i></p> <p><i>Mustaqil ishlarni bajarilishini maqsadli aylanish vaqtida nazorat qiladi va ish jarayonida o`quvchilar tomonidan qo`ygan xatolarni ko`rsatadi.</i></p> <p><i>Yakuniy yo`riqnoma (15 daq):</i></p> <p><i>Mashg`ulot tugaganidan so`ng ish joylarini talab darajasiga keltiradi. Tayyorlangan mahsulotni qabul qiladi. Keyingi darsga uyga vazifa beradi (6-ilova)</i></p>	<p><i>Savollarga javob beradi. Tinglaydilar, chizadilar, yozib oladilar.</i></p> <p><i>Ta`lim oluvchilar o`z ish joylariga turadilar, mashg`ulot rahbari ko`rsatmalari va yo`riqli texnologik xaritaga rioya qilgan xolda bajaradilar. Xatolarni to`g`irlaydilar.</i></p> <p><i>Foydalanilgan jihozlarni mashg`ulot rahbariga topshiradilar. Ish joyini tozalaydilar.</i></p>

Mavzu: O`tdirish tizimi

Reja:

1. O`tdirish tizimi vazifasi

2. O`tdirish tizimi turlari

3. O`tdirish tizimini qismlarga ajratish, tuzilishini o`rganish

2-ilova

O`tdirish tizimi mavzusi bo`yicha baholash mezonlari

T/r	Mezonlar	Baho
	Nazariy bilim (berilgan savollarga javob berishi)	
1	O`quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo`llay oladi, mustaqil mashq bajaradi, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo`yicha tasavvurga ega	5
2	O`quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo`llay oladi, mashqlarni bajara oladi, fan (mavzu)ning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo`yicha tasavvurga ega	4
3	O`quvchi olgan bilimni amalda qo`llay oladi, mashqlarni bajarishda xatolarga yo`l qo`yadi, fan (mavzu)ning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo`yicha tasavvurga ega	3
4	O`quvchi fan dasturini o`zlashtirmagan, fan (mavzu)ning mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo`yicha tasavvurga ega emas	2

3-ilova

Tezkor-so`rov; savol-javob, aqliy xujum savollari orqali bilimlarni faollashtirish

1. O`tdirish tizimi nima uchun kerak

2. O`tdirishning qanday usullari bor

3. O`tdirish g`altagi nima uchun kerak

Yuqoridagi savollarga javoblarni bilsangiz B/BH/B jadvalining 1 va 2 ustuniga belgi qo`ying

B	BH	B

4-ilova

Nazariy ma`lumotlar

MAVZUNI O`RGANISH JARAYONIDA EGALLANADIGAN AMALIY KO`NIKMALAR:

Mehnat muhofasi va sanitariya qoidalariga rioya qilish;

O`t oldirish tizimini tartibli ketma-ketlikka, texnik talablarga rioya qilib, qismlarga ajratish va yig`ish.

Asbob-uskunalardan to`g`ri foydalanish.


MODULNI O`RGANISH DAVOMIDA SHAKLLANADIGAN NAZARIY BILIMLAR;

Xavfsiz ishlash usullari;

O`t oldirish tizimini vazifasi, tuzilishi, detallarning nomlanishi, o`zaro bog`lanishi va ishlash jarayoni.

MAVZU DOIRASIDAGI ASOSIY MA`LUMOTLAR:


O`t oldirish tizimining vazifasi silindrdagi yonuvchi aralashmani o`z vaqtida, elektr uchqini yordamida alanglantirishdan iborat. TICO va DAMAS avtomobillarining o`t oldirish tizimining sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



Elektron o`t oldirish tizimi

Yarim o`tkazgichlarni o`t oldirish tizimida qo`llanishi o`t oldirish tizimini ishonchli va uzoq muddat ishlatish imkoniyatlarini yaratadi.

Avvalom bor kontakt – tranzistorli o`t oldirish tizimlari yaratilib, hozirda ham keng miqyosda qo`llanilmoqda, 2-rasm.



2-рasm. Контакт – транзисторли o't oldirish tizimining sxemasi.

1-uzgich; 2-транзистор; 3-o't oldirish g'altagi; e-emitter; b-baza; k-kollektor.


Kontakt – транзисторли o't oldirish tizimi kontaktli o't oldirish tizimidan shunday farqlanadiki, bunda uzgichning 1 kontaktlari orqali tranzistorga uncha ran bo'lmagan boshqarish to'ki o'tadi. O't oldirish g'altagining 3 birlamchi cho'lg'ami uzgichning 1 kontaktlari orqali emas, tranzistorning emitter-kollektor zanjiri orqali uziladi. Tranzistor kontaktlari yuqori to'kdan xalos etilganligi tufayli, tizimda kondensatorni o'rnatishdan holi etadi.

Bu tizim quyidagicha ishlaydi. Uzgich 1 kontaktlari ulanganida, tranzistorning 2 bazasi «B» akkumulyator batareyasining (-) manfiy klemmasi bilan ulanadi. Baza zanjiridan to'k o'tib tranzistorni 2 ochadi.

Ochilgan ransistor 2 orqali (emitter-kollektor) o't oldirish g'altagining 3 birlamchi cho'lg'amini zanjirga ulaydi.

Uzgich 1 kontaktlari uzilganida ransistor 2 yopilib, birlamchi cho'lg'amni zanjirdan uzadi. Bunda ikkilamchi cho'lg'amda ran qiymatga ega bo'lgan E.Yu.K. induksiyalanadi.

Elektromagnit datchikli o't oldirish tizimi tishli rotor shaklidagi doimiy, magnit 2 va o'zakga o'ralgan stator cho'lg'ami 1 dan iborat, 3-rasm.



3-рasm. Elektromagnit datchikli o't oldirish tizimi sxemasi.

1-stator cho'lg'ami; 2-doimiy magnitli rotor; 3-транзистор; 4-o't oldirish g'altagi.

Doimiy magnitli rotor 2 aylanganida, statorning 1 cho'lg'amida o'zgaruvchan E.Yu.K. induksiyalanadi. Rotorning tishi cho'lg'amga yaqinlashganida unda E.Yu.K. ortib keta boshlaydi va tish cho'lg'aming o'rtasiga kelganida eng ran qiymatga erishadi. Tish cho'lg'amdan uzoqlasha boshlagan sari E.Yu.K. kamaya boradi va belgisini o'zgartirib manfiy yarim to'lqin hosil qiladi (3-rasm, b). Cho'lg'amda musbat E.Yu.K.yarim to'lqinni hosil bo'lishi, tranzistordan 3 baza to'kini o'tishini ta'minlaydi.

Tranzistorni 3 ochishga yetarli musbat yarim to'lqinda Vochil kuchlanishi hosil bo'lib, o't oldirish g'altaning 4 birlamchi cho'lg'amidan to'k o'tadi. Qutbning o'zgarishida cho'lg'amdagi 1 E.Yu.K. tranzistorni yopadi va birlamchi cho'lg'amni zanjirdan uzadi. Bunda ikkilamchi cho'lg'amda yuqori kuchlanishli to'k hosil bo'lib, o't oldirish svechasida chaqmoq sodir etadi. Doimiy magnitli datchikning qutblar juftining soni, dvigatelning silindrlar soniga teng bo'ladi.

Yo'riqli texnologik xarita

5-ilova

Kasb kodi va nomi: 30711401-Avtomobil dvigatellarini tashxislash va ta'mirlash.

O`quv amaliyot nomi: Transport vositalarini va qishloq xo`jalik agregatlari tuzilishi va texnik xizmat ko`rsatishg

Mavzu №: O`t oldirish tizimi

Maqsad: O`quvchilarda o`t oldirish tizimi vazifasi, turlari, tuzilishi haqida nazariy bilimlarni mustaxkamlash, tizim elementlarini qismlarga ajratish – yig`ish va tuzilishini o`rganish ko`nikma va malakasini shakllantirish.

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblari va hom-ashyolar	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1.	Mehnat xavfsizligi qoidalarini takrorlash	Xavfsizlik qoidalarini bo'yicha yo'riqnima		1.Xavfsizlik qoidalarini bilan tanishish 2.Qoidalar bilan tanishganlik haqida daftarga imzo qo'yish
2.	Tizim tuzilishini o'rganish	Plakatlar, sxemalar, o'riginal detallar, maket yoki modellar		1.Mavjud qo'llanma va vositalar yordamida tizim tuzilishini o'rganish 2.Past kuchlanishli zanjirga tegishli elementlarni topish va daftarga qayd etish 3.Yoqori kuchlanishli elementlarni topish va daftarga qayd etish

6-ilova

Uyga vaziga

1. O`tilgan mavzuni takrorlab mustaxkamlash
2. Transport vositalarining ilashish muftalari haqida ma`lumotlar o`rganib kelish

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur bitiruv malakaviy ishni yoritishda hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasida olib borilayotgan o`zgarishlar, Davlatimizda chiqarilayotgan barcha qonunlar, farmonlar barchasi xalqning manfaatiga qaratilganligi va shu jumaladan ta`lim tizimida olib borilayotgan islohatlar yoki ta`lim tizimining takomillashtirilishi, undagi o`zgarishlar barchasi iqtisodiyotning rivojlanishiga qarab moslashtirilishi va zamonaviy kadrlarga bo`lgan extiyojdan kelib chiqqan holda ta`lim tizimida bo`layotgan o`zgarishlarni o`rgandim. Shu o`rinda kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlanishda zamonaviy texnologiyalarning axamiyatini taxlil qilishga urindim.

Ushbu o`qitish texnologiyasini kasb-hunar maktablarida joriy etish uchun birinchi navbatda talabalarda maktabdayoq to`g`ri kasb egallashlari uchun kasbga qiziqishlarini aniqlab KHM lardagi kasblar bo`yicha to`g`ri yo`naltirishni amalga oshirish zarur. Qolaversa KHM laridagi barcha o`qituvchi va ishlab chiqarish ta`limi ustalarini zaminaviy texnologiyalar asosida dars berishlari uchun qayta tayyorgarlikdan o`tishlarini amalga oshirish zarur, ya`ni o`quvchini o`z oldiga qo`ygan maqsadga erishishi uchun o`zi harakat qilishi kerakligini o`rgata oladigan ustozlar tayyorlanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Sh.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz" Toshkent – "O`zbekiston"-2018.

Sh.Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Toshkent – "O`zbekiston"-2018.

Sh.Mirziyoyev "[Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz](#)" Toshkent – "O`zbekiston"-2016.

M.Shoumarova Qishloq xo`jaligi texnikalarining tuzilishi va texnik xizmat xizmat ko`rsatish Noshir-2017

M.Melibayev Qishloq xo`jaligi mashinalari va chorvachilik jihozlar Oqituvchi-2016

A.Kamilov. "Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash" Cho`lpon – 2017.

<http://www.slaas.com>

www.schmotzer.dehttp://www.sase.com

www.hamedanagrimachines.com

<http://www.agromashina.com/p8.html>

<http://www.ziyonet.uz/technics>

<http://www.ref.uz><http://www.tsau.uz> <http://www.timi.uz><http://www.ref.uz> slaas.